SOLIQ TO‘LOVCHILARGA XIZMAT KO‘RSATISH DEPARTAMENTI

@soliqnews

**SUV RESURSLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ BO‘YICHA JORIY TO‘LOVLARNI HISOBLASH UCHUN MA’LUMOTNOMA ShAKLINI TO‘LDIRISh YUZASIDAN USLUBIY QO‘LLANMA**

## Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ma’lumotnoma shaklini to‘ldirish tartibi

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 448 - moddasiga asosan bo‘nak to‘lovlar miqdorini hisoblab chiqarish uchun soliq to‘lovchilar joriy soliq davrining **20 yanvarigacha**, yangi tashkil etilganlari esa davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay, suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga mo‘ljallanayotgan soliq bazasidan *(foydalaniladigan suv hajmidan)* va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblangan joriy soliq davri uchun soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani taqdim etadi. Soliq bo‘yicha majburiyatlari soliq davri ichida yuzaga kelgan soliq to‘lovchilar soliq summasi to‘g‘risidagi ma’lumotnomani soliq majburiyati yuzaga kelgan sanadan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay taqdim etadi.

*Bundan, qishloq xo‘jaligi korxonalari, O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek dehqon xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi yerlariga hamda tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’ektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar mustasno.*

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ma’lumotnoma** shaklini to‘ldirish va yuborish my.soliq.uz sayti orqali elektron raqamli imzodan foydalangan holda amalga oshiriladi.

@soliqnews

Bunda shaxsiy kabinetga kirgandan so‘ng yuridik shaxslarning hisobotlarini yuborish bo‘limiga o‘tiladi.




Elektron shakllardan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisobotlari tanlanadi.



Keyingi bosqichda, soliq davrida soliq summasi bazaviy hisoblash miqdorining **ikki yuz baravaridan kamroqni** tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ma’lumotnoma (choraklik)-**10608-9**-raqamli;

**- ikki yuz baravaridan ko‘proqni** tashkil etadigan yuridik shaxslar tomonidan - Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha joriy to‘lovlarni hisoblash bo‘yicha ma’lumotnoma (oylik)-**10608_10**-raqamli hisobot shakli tanlanadi.




@soliqnews

Hisobot oynasida o‘zingizga kerakli bo‘lgan hisobot shakli belgilanadi va yil, davr hamda hisobot turi tanlanadi.

So‘ngra, soliq to‘lovchilarning faoliyat turiga muvofiq satrning 4 va 5-ustunlariga Soliq solinadigan suvning taxmin qilinayotgan suv hajmi (metr kubda) kiritilganidan so‘ng, avtomat tarzda joriy yil uchun to‘lanishi lozim bo‘lgan soliqlar hisoblanadi.

Agar korxonada suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq bo‘yicha belgilangan imtiyozlar qo‘llaniladigan suv hajmi mavjud bo‘lsa belgilangan tartibda 9 va 10 ustunlariga imtiyozli suv hajmi kiritiladi.

Bunda imtiyoz uchun asos bo‘lgan qonun va qonun osti hujjatlari **Davlat soliq qo‘mitasining “E-Imtiyoz” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilgan murojaatlar asosida avtomatik shakllantiriladi.**

Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ бўйича жорий тўловларни ҳисоблаш бўйича
МАЪЛУМОТНОМА

| Кўрсаткичлар | Сатр коди | Солиқ солинадиган сувнинг тахмин қилинаётган жами ҳажми, метр куб | шу жумладан: | | Жорий йилга 1 метр куб учун белгиланган солиқ ставкаси | | Фойдаланилиши кутилаётган имтиёз | | | | | | | Солиқ суммаси | шу жумладан | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | Ер усти манбалари | Ер ости манбалари | ер усти манбалари | ер ости манбалари | жами, сув ҳажми | шундан: Ер усти манбалари | Ер ости манбалари | Имтиёз суммаси | шундан: Ер усти манбалари | Ер ости манбалари | Асоси | | Ер усти манбалари (4-устун - 9-устун) x 6-устун | Ер ости манбалари (5-устун - 10-устун) x 7-устун |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 | 14 | 15 | 16 | 17 |
| Иқтисодиётнинг барча тармоқларидаги корхоналар, шунингдек якка тартибдаги тадбиркорлар томонидан фойдаланилган сув ҳажми | 010 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Саноат корхоналари учун фойдаланилган сув ҳажми | 020 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Электр станциялари томонидан фойдаланилган сув ҳажми | 030 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Коммунал хизмат кўрсатиш корхоналари томонидан фойдаланилган сув ҳажми | 040 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Автотранспорт воситаларини ювиш учун фойдаланиладиган сув ҳажми | 050 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Алкоголсиз ичимликлар ҳамда пиво ва винодан ташқари алкоголь маҳсулотларини ишлаб чиқариш учун фойдаланиладиган сув ҳажми | 060 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Қишлоқ хўжалик ерларини суғориш ва балиқларни ўстириш (етиштириш) учун фойдаланилган сув ҳажми (0701-сатр+0702-сатр) шу жумладан: | 070 | | | | x | x | | | | x | | | x | | | |
| сув ўлчаш ускуналарисиз фойдаланилган сув | 0701 | | | | | | | | | | | | | | | |
| сув ўлчаш ускуналари асосида фойдаланилган сув ҳажми, кубметр | 0702 | | | | | | | | | | | | | | | |
| Умумий суммаси (0801-сатр +......+0812-сатр) | 080 | | | | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | x | x |
| январь ойи учун – 20 январгача | 801 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| февраль ойи учун – 20 февралгача | 802 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| март ойи (1-чорак) учун – 20 мартгача | 803 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| апрель ойи учун – 20 апрелгача | 804 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| май ойи учун – 20 майгача | 805 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| июнь ойи (2-чорак) учун – 20 июнгача | 806 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| июль ойи учун – 20 июлгача | 807 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| август ойи учун – 20 августгача | 808 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| сентябрь ойи (3-чорак) учун – 20 сентябргача | 809 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| октябрь ойи учун – 20 октябргача | 810 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| ноябрь ойи учун – 20 ноябргача | 811 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |
| декабрь ойи (4-чорак) учун – 20 декабргача | 812 | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | x | | | |

So‘ngra “Saqlash” yoki “Jo‘natish” tugmachalari orqali hisobot saqlanadi yoki jo‘natiladi.

Bundan tashqari, “Jurnal” bo‘limida hisobotlarni jo‘natilganligi, davlat soliq inspeksiyasi tomonidan rad etilganligi, qabul qilinganligi yoki xatolik mavjud holatlarini kerakli tugmani bosgan holda ko‘rishingiz mumkin.

## Soliq imtiyozlaridan foydalanish tartibi

**“E-Imtiyoz”** avtomatlashtirilgan axborot tizimiga murojaatlar my.soliq.uz portalidagi shaxsiy kabinetda joylashgan **“Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo‘yicha murojaat”** interaktiv xizmati orqali yuboriladi.

@soliqnews




Soliq imtiyozlaridan foydalanish bo‘yicha murojaat oynasi ochilganidan so‘ng belgilangan tartibda soliq imtiyozini qo‘llash uchun asos bo‘lgan qonun va qonunosti hujjat turi, soliq turi *(Suv RFS)*, hujjat raqami hamda imtiyozning boshlanish va tugash muddati tanlanadi.

Shundan so‘ng, mazkur oynaning quyi qismida imtiyoz qo‘llaniladigan suv hajmidan foydalanadigan soliq to‘lovchilarning tegishli faoliyat turi tanlanadi.

Keyin “Faylni tanlang” tugmasi orqali asoslovchi hujjatlar (jpg/pdf) biriktiriladi.

Soliq to‘lovchi bir necha obyektlar bo‘yicha imtiyozga ega bo‘lsa, “*qo‘shish”* tugmasi orqali har bir obyekt va ularning ma’lumotlarini yuqorida ko‘rsatilgan tartibda alohida kiritadi.

@soliqnews




Barcha qatorlarga so‘ralgan ma’lumotlar to‘liq kiritilgach, “**Yuborish**” tugmasi bosiladi.

Soliq to‘lovchilar tomonidan yuborilgan murojaatlar **“E-imtiyoz”** tizimining murojaatlar bo‘limiga kelib tushadi.

Murojaatlarda ko‘rsatilgan ma’lumotlar ishchi guruhi tomonidan o‘rganib chiqilib, ularning tegishli xulosasi asosida qabul qilinadi.

Soliq to‘lovchilar o‘z murojaatlar holatini “Yuborilgan murojaatlar” bo‘limida real vaqt rejimida kuzatib borishlari mumkin.

**E’tiboringiz uchun raxmat!**